

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

DAMINOVA O‘G‘ILOY MIRZAQUL QIZI

**OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI TARTIBGA SOLISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasи**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
in economics sciences**

Daminova O‘g‘iloy Mirzaqul qizi

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish	3
--	---

Даминова Угилой Мирзакул кизи

Совершенствование механизмов регулирования рынка продовольственных товаров.....	29
--	----

Daminova Ugiloy Mirzakul kizi

Improving the mechanisms for regulating the food products market	57
--	----

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ List of publications	61
---	----

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

DAMINOVA O‘G‘ILOY MIRZAQUL QIZI

**OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BOZORINI TARTIBGA SOLISH
MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.13 – Menejment

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2302 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Yo'ldoshev Nuritdin Qurbanovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Raximova Dilfuza Nigmatovna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mirdjalilova Dildora Shuxratovna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Toshkent kimyo-tehnologiya instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «_____» soat _____ dari majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49. Tel.: (99871) 239-01-49; faks: (99871) 239-41-23; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49 uy. Tel.: (99871) 239 - 28 - 75; faks: (99871) 239-28-75; e-mail: info@tsue.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «_____» _____ kuni tarqatildi.
(2025 yil «_____» _____ dari _____-raqamli reestr bayonnomasi).

G.Q. Abdurahmonova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

O.Dj. Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

Sh.A.Allayarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahonda 2023 yildagi davomli siyosiy-iqtisodiy inqiroz tufayli oziq-ovqat xavfsizligi masalasi barcha olimlar diqqat markazida bo‘ldi. Jahonning 48 mamlakatida 238 million kishi yuqori darajadagi oziq-ovqat tanqisligiga duch kelib, bu ko‘rsatkich 2022 yilga nisbatan 10 foizga ko‘p¹. Bunday vaziyatda oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy jihatdan ham dolzarb masala sifatida qaralmoqda.

Aholi soni izchil o‘sayotgan bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasi tobora dolzarb bo‘lib bormoqda. Buning ustiga, global iqlim o‘zgarishlari, yer va suv taqchilligi qishloq xo‘jaligida qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shunday sharoitga qaramasdan, 2024 yil yurtimizda 9 million tonna don, 3 million tonnadan ortiq paxta, 16 million tonnadan ziyod sabzavot va poliz mahsulotlari, 5 million tonna meva va uzum, 4 million tonna kartoshka, 15 million tonnadan ko‘p go‘sht va sut yetishtirildi. Oziq-ovqat sanoati bo‘yicha esa 343 ta loyiha ishga tushirildi.² Hududlarda oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirishning boshqaruv mexanizmlari va uning uslubiy jihatlarini yanada takomillashtirish, ushbu tarmoq istiqbollarini belgilash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralmoqda.

O‘zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini to‘laqonli ta’minlash, oziq-ovqat mahsulotlari assortimentini ko‘paytirish va sifatini oshirish bo‘yicha keng qamrovli iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini yanada rivojlantirishda Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi “Oziq-ovqat va nooziq ovqat mahsulotlari bozorlarida taklifni oshirish va mavsumiy taqchilliklarni bartaraf etish, ichki bozorni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish va narxlar barqarorligini ta’minlash, 2026 yilga borib oziq-ovqat mahsulotlari hajmini 7,4 mln tonnaga, qayta ishlash darajasini sut bo‘yicha 32 foiz, go‘sht bo‘yicha - 25 foiz, meva-sabzavot bo‘yicha - 28 foizga yetkazish, oziq-ovqat mahsulotlari zaxirasini yaratish va ichki bozorda intervensiya qilish hajmlari ko‘rsatkichlari, hududiy hokimliklarning ichki bozorda narxlar barqarorligini taminlash borasidagi vazifalarini aniq belgilash, asosiy turdagiligi oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini barqarorlashtirish, zaxiralarni shakllantirish va ulardan foydalanish qoidalarini ishlab chiqish bo‘yicha choralarini nazarda tutish”³ vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarning bajarilishi oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatining boshqaruv mexanizmlarini yanada takomillashtirish, soha faoliyatidagi mavjud muammolarni boshqaruv tizimi orqali bartaraf etish asosida amalga oshirish bilan belgilanadi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020 yil 11 noyabrdagi PQ-4887-son “Aholining sog‘lom ovqatlanishini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar

¹ https://civil-protection-humanitarian-aid.ec.europa.eu/news-stories/stories/global-food-crisis-what-you-need-know-2023_en

² <https://president.uz/uz/lists/view/7757>

³ <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

to‘g‘risida”gi, 2019 yil 29 iyuldagagi PQ-4406-son “Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishslash va oziq-ovqat sanoatini yanada rivojlantirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, 2018 yil 16 yanvardagi PF-5303-son “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi farmoniga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi, 2018 yil 13 dekabrdagi PF-5598-son “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat haqida axborot tizimlarini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2018 yil 24 noyabrdagi PF-5583-son “Tadbirkorlik va innovatsiyalar sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonlari va mazkur sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda ularning boshqaruv mexanizmini takomillashtirish masalalari xorijiy mamlakatlarda O.Gorb, I.Yasnolob, N.Protsiuk, N.A.Volkova, D.V.Yaskovoy, A.N.Shatalova, M.V.Taradina⁴, Assel G., Churchill G.A., Brown T.J., Kotler Ph., Keller K.L., Setiawan I., Karatajaya H., Malhotra N.K., Kennedy D., Praet V.D., Salenbacher J. Traindl A., Trout J., Doyle P.⁵ kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

⁴ Gorb O.A., Yasnolob I.A., Prosyuk N.Y. Organizational-economic mechanism of management of food industry enterprises competitiveness. Annals of agrarian science 14 (2016) 191-195.; Волкова Н.А., Яцковой Д.В. Анализ конкурентоспособности пищевых предприятий. УДК: 338.45:664.6(477) [хттп://орсид.орг/0000-0001-6401-5584.](http://орсид.орг/0000-0001-6401-5584.); Шаталова А.Н. «Особенности формирования стратегии устойчивого развития предприятий пищевой промышленности». Научный журнал НИУ ИТМО. Серия Экономика и экологический менеджмент № 2, 2020.; Тарадина М.В. «Формирование механизма управления процессами развития предприятий пищевой промышленности» Автореферат. 2011. Стр.13-20. Евсеев, Н. Н. Системный подход к менеджменту пищевого предприятия // Пищевая промышленность. 2006. № 10. С. 56.; Оксанич Н.В. Построение интегрированной структуры управления пищевым холдингом / Н. В. Оксанич // Пищевая промышленность. - 2008. - №38. - с.24-27.; Васильева Н.А. Проблемы развития пищевой промышленности России в условиях глобальной конкуренции // Российское предпринимательство. – 2012. № 7. – С. 103–107.; Ангелина И.А., Салита С.В. «Оценка конкурентоспособности предприятий пищевой промышленности»: методический аспект. 2519–2019 Вестник института экономических исследований 2018, № 4(12). Урасова А.А. «Особенности развития пищевой промышленности в Пермском крае в современных условиях. Экономическая политика и управление экономическим развитием». 2015. -Стр.134-135.

⁵ Ассэль Г. Маркетинг: Принципы и стратегия: -М.: Инфра-М.,1999; Churchill G.A, Brown T.V. Basic marketing research, -Thomson, United States, 2010; Kotler Ph. Marketing essentials. - Prentice Hall, United States, 2019; Kotler Ph., Setiawan I., Kartajaya H. Marketing 3.0: From Products to Customers to the Human Spirit. – wiley, 2012.; Malhotra N.K. Marketing research an applied orientation. – Prentice Hall, United States, 2016; On Strategic Marketing. Harvard Business review Press, - Boston, Massachusetts, 2019; Kennedy Dr No B.S. Guide to Brand – Boston, Massachusetts, 2019; Kennedy Dr No B.S. Guide to Brand – Building by Direct Response – Entrepreneur Press, 2014, Praet V.D. Unconscious Branding. How neuroscience can empower marketing. – Prentice Hall, USA, 2012, Salenbacher J. Creative personal branding. - BIS Publishers, 2013, Traindl A. Store branding excellence. – ratalil /branding. -2011., Trout J. Big Brands Big Trouble. – John wiley&sons, inc. New York, 2013, Doyle P. Marketing management and strategy. –Pearson Education, London, 2002.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarining oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tadqiq etishga katta hissa qo'shgan iqtisodchi olimlari qatoriga N.N.Yevseyev, N.F.Oksanich, N.A.Vasilyeva, I.A.Angelina, S.V.Salita, A.A.Urasova va boshqalarni kiritish mumkin.

O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligi masalalari, aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashning nazariy-amaliy asoslari bir qator mahalliy olimlar A.Ortiqov, D.N.Saidova, I.B.Rustamova, I.Yu.Umarov, M.Karimov, M.M.Azlarova⁶ va boshqalar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Biroq, oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning ma'muriy va bozor mexanizmlari yetarlicha o'rganilmaganligi ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining "Iqtisodiyotni transformatsiyalash sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari" mavzusi doirasidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning ma'muriy va bozor mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

menejmentning tartibga solish funksiyasi mazmunini ochib berish, uning usullari va tamoyillarini o'rganish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish nazariyalarini qiyosiy tahlil qilish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning ilg'or mamlakatlar tajribasini tahlil qilish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorining asosiy ko'rsatkichlari tahlilini o'tkazish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorida kartoshka, sabzavot va poliz ekinlarining o'rnini ochib berish;

mamlakatimiz viloyatlari kesimida kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari bozorining o'sish sur'atlarini tahlil qilish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishda davlatning o'rnini yoritib berish;

oziq-ovqat mahsulotlari bozorini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini taklif etish;

oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy modelini ishlab chiqish;

⁶ Abdurahim Ortiqov. «Sanoat iqtisodiyoti» (Darslik). - T.: TDIU, 2014 y, O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti. Toshkent 2014. 45-52 bet.; Saidova D.N., Rustamova I.B., Tursunov Sh.A. «Agrar siyosat va oziq-ovkat xavfsizligi». -T.: O'quv qo'llanma. «O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Asosiy kutubxonasi» bosmaxonasi nashriyoti, 2016. 12-b.; Umarov I.Yu. Oziq-ovqat sanoatida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2014. -23 b.; Karimov M.A. «Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish» / Monografiya. - Andijan: «STEP BY STEP PRINT» MChJ, 2021.- 100 b. M.M.Azlarova Iste'mol bozorini oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishda marketing strategiyalaridan foydalanishni takomillashtirish. (qandolat mahsulotlari misolida)-PhD dissertatsiyasi 08.00.11.2023

O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari bozorini 2030 yilgacha prognoz ssenariylarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi olingan.

Tadqiqotning predmetini oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish bilan bog‘liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, sintez, taqqoslash va ekonometrik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston viloyatlari kesimida oziq-ovqat bozorini tartibga solish uchun menejmentning institutsionallik, barqarorlik, uzoq muddatni mo‘ljallash, shaffoflik, majmuaviylik, vertikal integratsiya ustuvorligi, profilaktik boshqarish tamoyillariga rioya etish taklif etilgan;

oziq-ovqat bozorini bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun davlat tomonidan menejmentning tartibga solish funksiyasini izchil bajarish zarurligi asoslangan, maqsadli dasturlarni amalga oshirish tizimi taklif etilgan, ushbu dasturlarni bosqichma-bosqich bajarish modeli ishlab chiqilgan;

oziq-ovqat bozorini tartibga solishga ta’sir etuvchi omillarning regression tahlili xulosalariga asosan oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning SEM-modeli ishlab chiqilgan, ushbu modeldan oziq-ovqat mahsulotlari balanslarini tuzishda foydalanish tavsiya etilgan;

O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari prognoz ko‘rsatkichlarini belgilash, oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosini yetishtirishni ko‘paytirish, oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosi narxlari o‘sishining oldini olish, kelgusi yil uchun ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosiga ehtiyojning prognoz hajmlarini ishlab chiqish bo‘yicha takliflar asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda foydalanilgan ma’lumotlar va taniqli iqtisodchi olimlarning oziq-ovqat sanoati korxonalari faoliyatida boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishga oid ilmiy-nazariy qarashlari qiyosiy va tanqidiy tahlil qilinganligi, axborot bazasi milliy va nufuzli korxonalarining rasmiy manbalariga, xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma’lumotlariga asoslanganligi hamda natijalarining O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati mavjud yo‘nalishlardagi uslubiy yondashuvlarni takomillashtirishni va ulardan kelgusida oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga bag‘ishlangan maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi hamda takliflar oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda uslubiy baza bo‘lib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishda, sanoat korxonalarining boshqaruv faoliyatini rivojlantirish mexanizmini ishlab chiqishning

o‘ziga xos jihatlarini o‘rganishda, oziq-ovqat sanoati korxonalarining tarmoq va sohalar doirasida o‘ziga xos boshqaruv strategiyalarini ishlab chiqishda qo‘llash mumkinligi hamda amaliy tavsiyalardan oliv ta’lim tizimida “Menejment”, “Ishlab chiqarish menejmenti” fanlarini o‘qitishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekiston viloyatlari kesimida oziq-ovqat bozorini tartibga solishda menejmentning institutsionallik, barqarorlik, uzoq muddatni mo‘ljallash, shaffoflik, majmuaviylik, vertikal integratsiya ustuvorligi, profilaktik boshqarish tamoyillarini qo‘llash maqsadga muvofiqligi haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagagi “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1023-sun Qonunning 5-moddasini (Oziq-ovqat sohasidagi asosiy prinsiplar) ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-martdagagi №3/dn-56-sunli dalolatnomasi). Natijada tavsiya etilgan tamoyillar tizimi orqali O‘zbekistonda mahalliy oziq-ovqat bozorlarini tartibga solish jarayonini oqilona yo‘lga qo‘yish va shu asosda hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish samaradorligini uzoq muddatga oshirishni ta’minlash imkoniga erishildi;

oziq-ovqat bozorining rivojlanish xususiyatlarini bosqichma-bosqich shakllantirish uchun oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibga solishni takomillashtirish zarurligi, mavjud tuzilmani to‘ldiradigan ichki oziq-ovqat bozorini maqsadli dasturlar orqali qo‘llab-quvvatlash tizimini shakllantirish haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagagi “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1023-sun Qonunning 15-moddasi (Oziq-ovqat mahsulotlari tanqisligiga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha davlat tomonidan ko‘riladigan choralar)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-martdagagi №3/dn-56-sunli dalolatnomasi). Natijada, Respublikamizda markaziy va mahalliy hokimiyat organlari o‘z vakolatlari doirasida oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga ta’sir o‘tkazish mexanizmlari takomillashtirilgan va samarali tizim yaratilgan;

oziq-ovqat bozorini tartibga solishga ta’sir etuvchi omillarning regression tahlilini o‘tkazish asosida oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning SEM-modelini ishlab chiqish, uning oziq-ovqat bozorini tartibga solishga ta’sir etuvchi tashqi omillar va ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlashga oid takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagagi “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1023-sun Qonunning 17-moddasi (Oziq-ovqat balansini shakllantirish)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-martdagagi №3/dn-56-sunli dalolatnomasi). SEM-modelini qo‘llash natijasida oziq-ovqat bozorini tartibga solishga ta’sir etuvchi tashqi omillar va

ularning o‘zaro bog‘liqligini aniqlash va shu orqali oziq-ovqat mahsulotlari narxlarini prognozlash imoniyati yaratildi;

O‘zbekistonda oziq-ovqat mahsulotlari narxlari prognoz ko‘rsatkichlarini belgilash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va xomashyo yetishtirishni rivojlantirish, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosi narxlari o‘sishining oldini olish bo‘yicha takliflar tayyorlash, kelgusi yil uchun ijtimoiy ahamiyatga molik asosiy turdagini oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyosiga bo‘lgan ehtiyojning prognoz hajmlarini ishlab chiqish, ularning bajarilishi yuzasidan chora-tadbirlar ko‘rish zarurligi haqidagi takliflaridan O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 3-fevraldagagi “Oziq-ovqat xavfsizligi to‘g‘risida”gi O‘RQ-1023-son Qonunning 9-moddasi ikkinchi qismi to‘qqizinchi va o‘ninchisi xatboshilarini (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining oziq-ovqat xavfsizligi sohasidagi vakolatlari)ni ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2025-yil 17-martdagagi №3/dn-56-sonli dalolatnomasi). Natijada 2030 yilgacha kartoshka yetishtirishni 72 foiz, sabzavot mahsulotlari yetishtirishni 65 foiz, poliz mahsulotlari yetishtirishni 80 foizga ko‘paytirib, narxlarni 20-40 foizga pasaytirish rejalashtirildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot natijalari ifodalangan 20 ta ish aprobatsiyadan o‘tkazilgan. Ularning 15 tasi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to‘plamlarida, 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 4 tasi respublika jurnallarida va 1 tasi xorijiy jurnalda aprobatsiyadan o‘tkazilgan ishlar.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish e’lon qilingan. Ularning 8 tasi respublika va xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlari materiallari to‘plamlarida, 6 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda, jumladan, 5 tasi respublika jurnallarida va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 155 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbliji va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr qilingan ishlar va tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning ilmiy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida menejmentning tartibga solish funksiyasi mazmuni ochib berilgan hamda mahalliy oziq-ovqat bozorlarining rivojlanishini ta’minlash maqsadida ularni tartibga solish tamoyillari tizimi ishlab chiqilgan. Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning ilg‘or mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan va oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish nazariyalarini qiyosiy tahlil etilgan.

Menejment fani yoki menejment fenomeni faqat XX asrda turli nuqtai nazardan o‘rganilishi kerak bo‘lgan mustaqil bilim sohasi sifatida tan olingan. Biroq, maqsadli harakatlarni muvofiqlashtirish va rag‘batlantirish usullari to‘plami sifatida u ancha avval, jamoaviy mehnat shakllana boshlagan davrda paydo bo‘lgan. Bundan tashqari, har safar tobora ko‘proq yangi faoliyat turlarining aniqlanishi, ularning ijtimoiy mehnat taqsimoti natijasida ajralib chiqishi keyingi xronologik bosqichni belgilab bergan.

“Tartibga solish” funksiyasi - tashkilot tomonidan belgilangan tizimning ish rejimidan og‘ishlarni bartaraf etish bo‘yicha doimiy chora-tadbirlarni amalga oshirish jarayoni hisoblanadi. Mazkur funksiyaning mohiyati faoliyatni monitoring qilish va tahlil natijalariga asoslanib, insonlarning birgalikdagi harakatlarini tezkor boshqarishni ta’minlashdan iborat. Shu bilan birga, bu funksiya tizim tarkibidagi barcha elementlar o‘rtasida belgilangan maqsadlarga muvofiq zaruriy axborot almashinuvi va hujjat aylanishini saqlab turishni ham o‘z ichiga oladi. Tartibga solish jarayoni bashoratga asoslangan bo‘lishi lozim bo‘lib, u boshqaruv ostidagi obyektlarning ehtimoliy holatlari va ish sharoitlarini oldindan aniqlash imkoniyatini yaratishi zarur.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, dissertatsiyada oziq-ovqat mahsulotlari bozorini tartibga solishning nazariy-uslubiy asoslari bo‘yicha turli yondashuvlar umumlashtirilib oziq-ovqat bozorini tartibga solish vositalari bir necha guruhlarga ajratildi (1-jadval).

1-jadval

Oziq-ovqat bozorini davlat tomonidan tartibgi solish vositalari⁷

Davlat tomonidan tartibga solish vositalari				
Litsenziyalash, monopoliyaga qarshi choralar, kvotalash, ish xaqini minimal darajasini belgilash, ro‘yxatga olish	Davlat dasturlari, yillik rejalar, standartlar, normativlar, tariflar, davlat investitsiyalari	Qayta moliyalash stavkasi, kredit imtiyozlari, valyuta intervensiyalari	Davlat buyurtmalari, dotatsiyalar, subsidiyalar, kompensatsiyalar	Prognozlash, indikativ normativlar belgilash

Zamonaviy mintaqaviy tadqiqotlarda mahalliy oziq-ovqat bozorlarini o‘rganishning muhim ahamiyati quyidagi bir qator asosiy ijtimoiy-iqtisodiy sabablardan kelib chiqishini ta’kidlash kerak:

mahsulotlarni sotish joyidan qisqa masofalarda ishlab chiqarish va tarqatish sintetik kimyoviy moddalar va o‘g‘itlardan foydalanishni kamaytiradi, mahsulotlardagi pestitsidlar miqdorini cheklaydi;

⁷ Muallif ishlanmasi

aholining yashash joyiga yaqin joyda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlarining chakana savdosi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri marketing) xaridorlar tomonidan, ayrim hollarda shaxsiy muloqot orqali axborot mazmuni va ishonchini oshiradi;

mahalliy hosil bozorga tezroq chiqadi, bu esa transport xarajatlarini kamaytiradi, mahsulot narxini import qilingan analoglardan arzonlashtiradi.

N.L. Kuzmina va L.L. Tonisheva mahalliy oziq-ovqat bozorlarini tartibga solishning bunday tamoyilini innovatsiya deb belgilaydi.⁸ Ularning fikriga ko‘ra, ushbu tamoyil mahalliy oziq-ovqat bozori tuzilmasi va infratuzilmasiga ta’sir etish maqsadida davlat va mintaqaviy vositalarni muntazam ravishda yangilab borishni nazarda tutadi.⁹ Biz bunday tamoyilga to‘liq qo‘sila olmaymiz. Doimiy o‘zgarishlar bozor subyektlarining iqtisodiy xatti-harakatlarini tartibsizlashtirishi, ularning uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish, keng ko‘lamli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun rag‘batlarini kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, ko‘plab mahalliy oziq-ovqat bozorlari uchun ma’lum bir tartibga soluvchi barqarorlik mos keladi. Innovatsiya tamoyilini esa faqat uning subyektlari ishlab chiqarish bazasini texnik va texnologik modernizatsiya qilish bilan bog‘liq holda ma’qullah mumkin. Mahalliy oziq-ovqat bozorlarini boshqaruv tamoyillari quyidagi jadvalda to‘liq aks ettirilgan.

2-jadval

Mahalliy oziq-ovqat bozorlarini boshqaruv tamoyillari¹⁰

Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari bozorini boshqarishning kengaytirilgan tamoyillari	Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatish yo‘nalishlari
1. Institutsionallik tamoyili	Mahalliy oziq-ovqat bozori subyektlarining uzoq muddatli iqtisodiy xatti-harakat modellarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirish, hududiy iqtisodiyot va ijtimoiy sohadagi noaniqlikni kamaytirishga xizmat qiladi
2. Oziq-ovqat bozorlarini tartibga solishda barqarorlik tamoyili	Mahalliy oziq-ovqat bozorini rivojlantirish omillarining sinergetik samarasini beradi
3. Uzoq muddatli tamoyil	Yalpi hududiy xarajatlarni kamaytirish, yalpi hududiy mahsulot o’sishini ta’minalash
4. Shaffoflik tamoyili	Suiste’mol qilish xavfini kamaytiradi, aholi ehtiyojlari uchun oziq-ovqat sotib olishni ta’minalaydi
5. Oziq-ovqat bozorlarini ta’minalashda majmuaviylik tamoyili	Hududiy agrosanoat klasterlar rivojlanishini rag‘batlantiradi
Mahalliy oziq-ovqat bozorlarini boshqarishning kengaytirilgan tamoyillari	Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini rivojlantirishga ta’sir ko‘rsatadi
6. Mahalliy bozorni rivojlantirishda vertikal integratsiya ustuvorligi tamoyili	Mahalliy oziq-ovqat bozorlari tashkilotlarining umumiy xarajatlari va tijorat risklarini kamaytiradi
7. Mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari bozorini profilaktik boshqarish tamoyili	Mahalliy oziq-ovqat bozorlarini boshqarish va mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash uchun prognozlash imkoniyatlari sifatini oshiradi

⁸ Кузьмина Н.Л., Тонышева Л.Л. Виды и приоритеты развития локальных продовольственных рынков // Экономика и предпринимательство, 2015. - № 6-1 (59-1). - С. 260-263.

⁹ Организация сельскохозяйственного производства (учебник; издание второе, перераб. и доп.) (коллектив авторов; под ред. д-ра экон. наук М.П. Тушканова и д-ра экон. наук А.Ф. Максимова). - "ИНФРА-М", 2021 г.

¹⁰ Muallif ishlanmasi

Mahalliy oziq-ovqat bozorlarining barqaror rivojlanishi bevosita ularni tartibga solishning bir qator tamoyillarining amalga oshirish darajasiga bog‘liq bo‘lib, bunda viloyat va shahar hokimiyatlarining faoliyati, mintaqa iqtisodiyotida mahalliy oziq-ovqat bozorlarining o‘rni maqsadli ta’sir mexanizmi bilan bajarilishi kerak bo‘lgan ba’zi barqaror talablarni e’tiborga olish zarur hisoblanadi.

Oziq-ovqat bozorini tashkil etish va tartibga solish tizimi mamlakatning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lishi kerak. Oziq-ovqat bozorining samaradorligi asosan oziq-ovqat resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanishda davlatning ishtiroki darajasi bilan belgilanadi. Ishlab chiqarishni ko‘paytirishning potensial imkoniyatlarini amalga oshirish, oziq-ovqat turlarini ko‘paytirish va ularning davlat zaxiralarini yaratish davlatning tartibga solish rolini faollashtirish orqali amalga oshirish mumkin.

Oziq-ovqat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi iste’molchilar manfaatlarini (xavfsizligini) himoya qiluvchi va ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy holatini qo‘llab-quvvatlovchi normativ-huquqiy baza bilan belgilanadigan moliyaviy, kredit, narx, bojxona, tarif va soliq siyosati asosida quriladi.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanish holati”** deb nomlangan ikkinchi bobida oziq-ovqat mahsulotlari bozorining asosiy ko‘rsatkichlari va oziq-ovqat bozoriga ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy omillar tahlili o‘tkazilib, oziq-ovqat mahsulotlari bozorida kartoshka, sabzavot va poliz ekinlarining o‘rni hamda mamlakatimiz viloyatlari kesimida kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlari bozorining o‘sish sur’atlari tahlil qilingan.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanishida uning hajmi ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bozor hajmining kengayishi va sifat ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi jarayoni aholining to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan talabiga hamda iqtisodiyotning noishlab chiqarish sohasining rivojlanish darajasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq va doimiy ravishda amalga oshib turadi.

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanishini baholashda bir qator ijtimoiy, demografik va iqtisodiy omillarni hisobga olish muhim. Avvalo, aholining ijtimoiy tarkibi - ya’ni, aholining daromad manbaalari, daromad darajasi va uning taqsimlanishi bozorni tahlil qilishda asosiy o‘rin tutadi. Bu ko‘rsatkichlar aholining oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga bo‘lgan qobiliyati va istaklarini belgilaydi. Shuningdek, bozorda oila soni, jinsiy nisbat hamda turli avlod vakillarining ulushi kabi demografik omillar muhim ahamiyatga ega. Chunki aynan ana shu omillar iste’molchilarning xulq-atvori va talablarini shakllantiradi. Xaridorlar ehtiyojini aniqlash, ya’ni qaysi turdagi mahsulotlarga talab mavjudligini anglash va bu ehtiyojning intensivligini baholash bozorning istiqboldagi rivojlanish jarayoniga bevosita ta’sir qiladi. Shuning uchun bozorni tahlil qilishda xo‘jalik yuritishning mazkur shakliga ham alohida e’tibor berish lozim bo‘ladi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining umumiy tarkibidagi ulushi 2023-yilda 11,8 foizni tashkil etib, shu bilan birga jami iste’mol tovarlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 37,4 foizga yetdi. O‘tgan yilning shu davriga nisbatan, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6,2 foizga o‘sdi, va umumiy ishlab chiqarish hajmi 70,717,5 milliard so‘mga yetdi. Oziq-ovqat sanoatida ishlab chiqarilgan tovarlar

hajmining mamlakat hududlari bo‘yicha o‘tkazilgan tahlilida eng yuqori ko‘rsatkich Toshkent shahriga (32,9 foiz) to‘g‘ri kelgan. Toshkent viloyatining ulushi 17,2 foizni, Samarqand viloyatiniki esa 7,6 foizni tashkil etdi. Bu ma’lumotlar, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishi respublikaning ayrim hududlarida anchagina jadal rivojlanib, ularning ulushlari o‘tgan yillarga nisbatan yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning tashqi savdo aylanmasi 2023-yilda 62,6 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu savdo aylanmasining 24,4 milliard dollari eksportga to‘g‘ri kelgan. Savdo aylanmasining ushbu tarkibida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti taxminan 2 milliard dollarni tashkil etib, umumiyligi eksport hajmiga nisbatan 7,3 foizni tashkil qilgan.¹¹ Bu ko‘rsatkichlar, O‘zbekistonning xalqaro savdodagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talabning ortib borayotganini, shuningdek, bu sohaning mamlakat eksportidagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tahlil natijalari O‘zbekistonda 2023-yilda 1 757,7 ming tonna meva va sabzavot eksport qilinganligini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkich 2022-yilning shu davriga nisbatan 1,1% yoki 18,9 ming tonnaga ko‘p. Biroq, eksportdagi o‘sish surati pastroq bo‘lishiga bir qator omillar sabab bo‘ldi. Xususan, 2022-yilning yanvar oyida respublikamiz hududiga kirib kelgan anomal sovuq havo sharoitlari, meva, uzum va issiqxonalarda etishtiriladigan mahsulotlarga sezilarli¹² zarar yetkazdi. Natijada, ayrim mahsulotlar eksportining salbiy o‘sishi kuzatildi. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti quyidagi hajmda kamayganligi qayd etildi: uzum 55,9% ga, karam 19% ga, shaftoli 1,3% ga, pomidor 23,8% ga va quritilgan uzum 18,3%. Shu bilan birga, quyidagi mahsulotlar eksporti mosh eksporti 28,4% ga, qovun-tarvuz eksporti 7,7% ga, quritilgan olxo‘ri eksporti 45,3% ga, piyoz eksporti 45,5% ga, gilos eksporti 58,9% ga, o‘rik eksporti esa 6,9 baravarga ko‘paydi.¹³ Bu ma’lumotlar, o‘zgaruvchan iqlim sharoitlari va bozor talablari eksportning har xil mahsulotlari bo‘yicha turli o‘sish va pasayish tendensiyalarini shakllantirishiga ta’sir qilganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston Respublikasi 2023-yilda 1180,8 million AQSH dollarini qiymatidagi meva-sabzavotlarni eksport qildi, bu esa oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismini tashkil etdi. Ushbu ko‘rsatkich 2022-yilning shu davriga nisbatan 3,3% ga oshgan va umumiyligi eksport hajmida 4,8% ulushni egallagan. Meva va sabzavot mahsulotlar eksportida quyidagi mahsulotlar eng katta ulushga ega bo‘ldi: shaftoli (shu jumladan, nektarinlar) 10,2%, mosh 7,3%, uzum 5,8%, quritilgan uzum 5,7%, piyoz 5,2%, gilos 4,5%, pomidor 3,7%, o‘rik 3,4%, qovun va tarvuz 3,4%.

Umumiyligi oziq-ovqat mahsulotlari va ularning xom-ashyolari importi 2023-yilda 3 812,1 million dollarni yoki 109,8 foizni tashkil etdi¹⁴. Import tarkibida quyidagi mahsulotlar o‘z o‘rnini egalladi: donli ekinlar - 937,9 million dollar (bu, o‘z navbatida 112,4 foizga o‘sdi), yog‘ va un mahsulotlari - 277,8 million dollar (122,2 foizga oshgan), shakar, uning xom-ashyolari va tayyor mahsulotlar - 770,1 million dollar (12,4 foizga oshgan), kofe va choy mahsulotlari - 110,2 million dollar (131,3 foizga o‘sdi), go‘sht va go‘sht mahsulotlari - 354,4 million dollar.

¹¹ <https://stat.uz/uz/>


¹² <https://www.agro.uz/wp-content/uploads/2024/03/agriculture-annual-report-2023.pdf>

¹³ <https://stat.uz/uz/>

¹⁴ <https://www.agro.uz/wp-content/uploads/2024/03/agriculture-annual-report-2023.pdf>

(110,9 foizga o'sdi), sabzavot va mevalar - 269,2 million dollar (120,0 foizga o'sdi), sut mahsulotlari - 123,3 million dollar (133,4 foizga oshgan), turli oziq-ovqat mahsulotlari - 148,2 million dollar (50,3 foizga kamaygan), ichimliklar - 171,8 million dollar (135,7 foizga oshgan), va o'simlik yog'lari - 448,6 million dollar (80,7 foizga kamaygan). Bu holat, bir tomonidan, iqtisodiyotda oziq-ovqat sektorining tashqi bozorlarga qaramligi saqlanib qolayotganini, ikkinchi tomonidan esa, ayrim mahsulotlar bo'yicha ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida import hajmini kamaytirish uchun ichki ishlab chiqarish zanjirlarini mustahkamlash, subsidiya siyosatini kengaytirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash borasida tizimli islohotlarni davom ettirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasida oziq-ovqat mahsulotlari bozoriga ta'sir ko'rsatuvchi muhim iqtisodiy omillardan biri - oziq-ovqat sanoati korxonalarining ko'payishi hamda ularning ishlab chiqarish salohiyatining kengayib borishidir. Ushbu omil bozorning samarali ishlashi va talabni to'liq qondirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. 2023-yilda oziq-ovqat sanoati mahsulotlarining umumiy ishlab chiqarish hajmi 86,3 trillion so'mni tashkil etib, bu esa belgilangan rejadan 105,9 foizga yuqori demak. Oziq-ovqat sanoati bozorining kengayishi va rivojlanishi uchun amalga oshirilgan ishlar natijasida, respublikada jami 28,7 mingta oziq-ovqat korxonasi ro'yxatdan o'tgan. Ulardan 16,5 mingtasi ishlayotgan bo'lsa, 9,5 mingtasi faoliyatini to'xtatgan, 2 714 tasi yangi tashkil etilgan va yana 1 074 tasi tugatilgan. Bu raqamlar oziq-ovqat sanoatining rivojlanish jarayoni sur'atlarini va ular bozor talabiga mosligini ko'rsatadi.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasida 2023-yilda yetishtirilgan asosiy turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari (mln. tonna)¹⁵

Oziq-ovqat sanoatining hozirgi kunda faoliyat yuritayotgan 16,5 mingga yaqin korxonasi orasida 1,2 ming nafari meva-sabzavot mahsulotlari, 1,3 ming nafari sut, 668 tasi esa go'sht qayta ishlashga ixtisoslashgan. Ushbu korxonlarda yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlari yuqorida 1-rasmda keltirilgan.

Bundan tashqari, meva-sabzavotlarni qayta ishlash quvvati 185 ming tonnaga ko'payib, umumiy hisobda 3 250 ming tonnani tashkil etdi. Go'shtni qayta ishlash

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

quvvatlari esa qo'shimcha 21 ming tonna o'sish bilan jami 458 ming tonnaga yetkazilib, bu go'sht mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirishga yordam beradi va sanoatning samarali faoliyat yuritishini ta'minlaydi. Sutni qayta ishslash quvvatlari ham sezilarli darajada oshib, ya'ni 2 760 ming tonnadan 3 100 ming tonnaga yetdi.

Oziq-ovqat bozori iqtisodiy makonning murakkab tarkibiy shakli bo'lib, u ichki ierarxik tuzilishga ega va ichki hamda tashqi iqtisodiy muhit bilan uzviy aloqadorlikda faoliyat yuritadi. Mazkur bozorning shakllanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, uni o'rganishda tizimli yondashuv zarur hisoblanadi. Oziq-ovqat bozori murakkabligi bilan ajralib turadi va bu uning rivojlanish mexanizmining o'ziga xosligini belgilaydi.

Oziq-ovqat mashulotlari bozoriga ta'sir ko'rsatuvchi eng muhim iqtisodiy omillardan biri bu narx hisoblanadi. Bizning tadqiqotimiz asosan ijtimoiy jihatdan eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan kartoshka, sabzavot va poliz ekinlariga tegishli bo'lganligi uchun ham biz ushbu tovarlar guruhi narxini alohida ko'rib chiqdik. O'zbekistonda 2019-2023 yillardagi sabzavot va poliz mahsulotlarining o'rtacha narxlari dinamikasi tahlili narxlar yildan-yilga oshib borayotganini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, sarimsoq (2,6 marta), piyoz (2,3 marta), guruch (1,9 marta), bodring, pomidor va qovoq (1,8 marta) kabi oziq-ovqat mahsulotlarida sezilarli o'sish kuzatilmoqda (3-jadval).

3-jadval

O'zbekistonda 2019-2023 yillarda ayrim turdag'i oziq-ovqat mahsulotlari o'rtacha narxlarining o'zgarish dinamikasi (kilogramm)¹⁶

Mahsulotlar	2019 narx kg/so'mda	2020 narx kg/so'mda	2021 narx kg/so'mda	2022 narx kg/so'mda	2023 narx kg/so'mda	2023 yilning 2019 yilga nisbati, %
Guruch	9052,9	9132,2	9583,1	10209,9	18025,4	199,1
Bug'doy	2243,6	3002,4	3313	4123,45	3969,8	176,9
Makkajo'xori	2703,8	3161,9	3567	4187,7	4178,5	154,5
Tarvuz	3511,4	3668,6	5429,8	5280	5376,9	153,1
Qovun	3624,2	3883,7	4051,2	6145	5873,1	162,1
Karam	2365,4	1768,3	2321,0	3648,8	3888,6	164,4
Bodring	6990,5	8218,3	8543,7	10022	13111,9	187,6
Pomidor	7666,3	7477,2	8367,0	10484,3	13817	180,2
Baqlajon	9578,9	10282,4	10836,1	14623	13820,7	144,3
Bulg'or qalampiri	12121,7	13315,1	14233,1	14083,5	18130,6	149,6
Qovoq	2624,3	2623,9	3351,1	3768,9	4904,8	186,9
Sabzi	2149,7	1964,1	3687,2	2753,4	3608,4	167,8
Sarimsoq	7437,7	24455,1	19830	19545,2	19429,7	261,2
Piyoz	1826,4	1931,3	1827,5	3224,1	4278,7	234,3
Kartoshka	2338,4	3580,6	3830,8	4012,1	4187,7	179,1

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2019-2022 yillarga mo'ljallangan "Qishloq xo'jaligi" statistik to'plami asosida muallif hisob-kitoblari

Oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanishi eng avvalo, mamlakatning oziq-ovqat tovarlari bo'yicha mamlakat ichida va xalqaro iqtisodiy aloqalarning shakllanishida qatnashishini ta'minlovchi yetarli hajmdagi rivojlangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va oziq-ovqat sanoatining mavjudligiga asoslanadi. Bu albatta, qishloq xo'jaligi va sanoat mamlakatni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'laqonli ta'minlashi kerak degani emas. Ular aholining asosiy oziq-ovqat mahsulotlariga talabini qondirish holatida bo'lishi va mintaqaning oziq-ovqat resurslarini ishlab chiqarishdagi ulushi doimo o'sib borishi kerak.

Bundan tashqari, taqdiqot doirasida bu ekinlar maydonlarining kengayishi va ishlab chiqarishning o'sishi oziq-ovqat narxlariga qanday ta'sir ko'rsatishini, ularning narxlaridagi tebranishlar va ular bilan bog'liq iqtisodiy omillarni aniqlashga ham alohida e'tibor qaratildi. Ushbu tahlil, mamlakatdagi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, qishloq xo'jaligida hosildorlikni oshirish va narxlarning barqarorligini saqlash borasida muhim tahliliy ma'lumotlarni taqdim etadi, shuningdek, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda qo'llaniladigan strategiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Biroq, maydonlarning o'sishi bilan birga hosildorlik darajasi turli mahsulot turlari bo'yicha bir xil o'sish sur'atiga ega bo'lмагanligini ko'rsatadi. Ya'ni, maydonlar kengaygan bo'lsa ham, hosildorlikning o'sishi bu mahsulotlar bo'yicha teng taqsimlanmagan. Ushbu farqni aniqroq tushunish uchun quyidagi 4-jadvalda hosildorlik o'sishining tahlili keltirilgan bo'lib, u turli ekinlar bo'yicha hosilning qanday o'zgarganini ko'rsatadi.

4-jadval

O'zbekistonda 2019-2023 yillarda kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari yetishtirishning o'sishi (ming tonna)¹⁷

Mahsulotlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yilning 2019 yilga nisbati, %
Kartoshka	3089,7	3143,8	3285,6	3443,2	3 574,1	115,7
Sabzavotlar	10215,1	10431,4	10850,2	11162,9	11 553,7	113,1
Poliz ekinlari	2068,7	2134,4	2285,3	2420,7	2 553,5	123,4

Mamlakatimizda, 2019-2023 yillarda kartoshka ekish uchun ajratilgan yer maydonlari 31,6 foizga oshgan bo'lsa, kartoshka yetishtirish bo'yicha hosildorlik faqat 15,7 foizga o'sgan. Ya'ni, yer maydonlari kengaygan bo'lsa ham, hosilning o'sishi nisbatan kamroq bo'lgan. Sabzavot ekilgan maydonlar 14,1 foizga kengaygan bo'lsa-da, hosildorlik 13,1 foizga ortgan. Poliz ekinlarida esa maydonlar 34,8 foizga oshgan bo'lsa, hosildorlik 23,4 foizga ortgan. Bu holatni har bir ekin turining maydoni va hosildorligi o'sishi aniq belgilangan jadvaldan ko'rish mumkin. Ushbu ma'lumotlar, umumiy maydon o'sishiga nisbatan, hosildorlikning o'sish sur'ati turli ekinlar bo'yicha farq qilishi ehtimolini ko'rsatadi.

Respublikada oziq-ovqat mahsulotlari bozorining rivojlanish darajasi aholini sifatli oziq-ovqat bilan ta'minlashning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan hisoblanadi, chunki inson salomatligi va farovonligi oziq-ovqat mahsulotlaridan

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2019-2022 yillarga mo'ljallangan "Qishloq xo'jaligi" statistik to'plami asosida muallif hisob-kitoblari

qoniqish darajasiga bog‘liq. Oziq-ovqat bozorining rivojlanishi resurs bazasini shakllantirishning asosiy manbai sifatida agrosanoat majmuasining holati, savdo sohasi, xaridorlarning to‘lov qobiliyati va iste’mol talabiga bog‘liq. Oziq-ovqat muammosi ishlab chiqarishning kamayib borayotgani, ko‘plab mahsulotlar iste’molining standart darajadan pastligi va tushishda davom etayotgani, oziqlanish sifatining yomonlashishi bilan yanada og‘irlashadi.

5-jadval

O‘zbekistonda 2019-2023 yillarda aholi jon boshiga kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari yetishtirish dinamikasi (kilogramm)¹⁸

Mahsulotlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yilning 2019 yilga nisbati, %
Kartoshka	92,0	91,0	93,2	95,5	98,2	106,7
Sabzavotlar	304,2	301,8	307,6	309,9	317,3	104,3
Poliz ekinlari	61,6	61,8	64,8	67,2	70,1	113,8

Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda 2019-2023 yillarda aholi jon boshiga poliz ekinlari yetishtirish bo‘yicha eng yuqori o‘sish darajasiga, ya’ni 113,8 foizga erishilgan. Bu poliz ekinlarining ishlab chiqarish hajmi aholi soni hisobiga o‘stirilgan va bu davr mobaynida poliz ekinlari sohasida jiddiy rivojlanish va o‘sish kuzatilganligini anglatadi. Aholining har bir a’zosiga to‘g‘ri keladigan poliz mahsulotlari miqdori, shu tariqa, 2019 yildan 2023 yilga o‘tish davrida ikki baravar oshgan.

O‘zbekistonda 2023-yilda 75 trillion so‘mlik 17,7 million tonna kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari yetishtirilib, bu qishloq xo‘jalik mahsulotlarining 18,5 foizini (yil davomida 0,3 foizga o‘sgan) tashkil etdi. Sabzavot yetishtirish hajmi 11,6 million tonnaga yetdi va bu ko‘rsatkich 2022-yilga nisbatan 3,5 foizga o‘sgan. Ushbu sabzavotlarning 6,9 million tonnasi (59,4%) dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 4,3 million tonnasi (37,1%) fermer xo‘jaliklari, qolgan 400,1 ming tonnasi (3,4%) esa qishloq xo‘jalik¹⁹ tashkilotlari ulushiga to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkichlar sabzavotlar ishlab chiqarishda keng tarmoqli va turli xil xo‘jaliklar ishtirokida katta o‘sishni ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida demografik o‘sish sur’atlari ortib borayotgani bilan bir qatorda, asosiy qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga - jumladan, don, sabzavot, kartoshka, poliz va mevalarga bo‘lgan ichki talab ham izchil ravishda oshmoqda. Bu holat oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash va ichki bozorni barqaror holda ushlab turish maqsadida dehqonchilik mahsulotlarini yetarli hajmda ishlab chiqarishni strategik zaruratga aylantiradi. Ayni paytda ushbu mahsulotlarga bo‘lgan talab to‘liq qondirilmaganiga qaramay, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan mahsulotlar miqdori yildan-yilga o‘sib bormoqda. Xususan, 2023-yil yakunlariga ko‘ra, o‘tgan yilga nisbatan aholi jon boshiga don 4,3 %, sabzavotlar 2,4 %, kartoshka 2,7 %, poliz ekinlari 4,4 %, mevalar yetishtirish hajmi esa 3,5 % ga oshgani kuzatildi. Bu dinamik ko‘rsatkichlar agrar siyosatning bosqichma-bosqich

¹⁸ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining 2019-2022 yillarga mo‘ljallangan “Qishloq xo‘jaligi” statistik to‘plami asosida muallif hisob-kitoblari

¹⁹ agriculture-annual-report-2023.pdf.https://www.agro.uz/wp-content/uploads/2024/03/agriculture-annual-report 2023

takomillashayotganidan va dehqonchilik salohiyatining asta-sekin yuksalayotganidan dalolat beradi (6-jadval).

6-jadval

O‘zbekiston viloyatlarida 2019-2023 yillarda aholi soni, kartoshka, sabzavot, poliz ekinlari yetishtirishning o‘zgarish dinamikasi sur’atlari (foiz)²⁰

Hududlar	Aholi soni	Kartoshka yetishtirish	Sabzavot yetishtirish	Poliz ekinlari yetishtirish
O‘zbekiston Respublikasi	108,3	115,7	113,1	123,4
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	105,7	115,2	121,7	125
viloyatlar				
Andijon	108,3	118,5	111,0	123,4
Buxoro	106,1	119,3	125,5	118,5
Jizzax	109,1	131,1	111,53	114,9
Qashqadaryo	108,4	112,5	113,0	116,8
Navoiy	107,8	111,1	117,7	113,7
Namangan	108,9	119,1	121,9	156,1
Samarqand	108,4	116,7	99,5	133,4
Surxondaryo	109,2	110,0	120,3	114,3
Sirdaryo	108,0	114,2	100,6	124,0
Toshkent	103,3	105,4	108,3	119,0
Farg‘ona	107,9	120,1	121,0	159,4
Xorazm	106,7	120,9	111,6	119,9

